

2023/10
№2(19)

ISSN 2791-3651

Молодой специалист



Выпуск №2(19) 2023/10



TOGETHER WE REACH THE GOAL

zenodo

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



aerjan84@mail.ru



<http://t.me/mspeskz>



+7 705 724 97 69



Проспект Шәкәрім
Құдайбердіұлы, д. 25/3
г. Нур-Сұлтан, РК

ЭЛЕКТРОННЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ
«Молодой специалист»
Выпуск №2(19) (октябрь, 2023)

Свидетельство о постановке на
учет периодического печатного
издания, информационного
агентства и сетевого издания
Эл № KZ26VPY00048061
от 15 апреля 2022 г.

Главная цель журнала заключается в публикации оригинальных статей, преимущественно научного и научно-технического направления, предоставлении научной общественности, научно-производственным предприятиям, представителям бизнес-структур, а также студентам, магистрантам и докторантам вузов возможность знакомиться с результатами научных исследований и прикладных разработок по ключевым проблемам в области передовых технологий.

Задачи журнала состоят:

- в предоставлении ученым возможности публикации результатов своих исследований по научным и научно-техническим направлениям;
- достижении международного уровня научных публикаций журнала;
- привлечении внимания научной и деловой общественности к наиболее актуальным и перспективным направлениям научных исследований по тематике журнала;
- привлечении в журнал авторитетных отечественных и зарубежных авторов, являющихся специалистами высокого уровня.

Журнал размещается и индексируется на порталах eLIBRARY.RU и Google Scholar.



TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA AMALIY SAN'ATNING ROLI

Azizova Munira Jahongir qizi

talaba, Toshkent davlat transport universiteti

Annotatsiya: Turizm ko'plab davlatlar iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, xizmatlar eksportidan katta daromad olish, ish o'rinlari yaratish va infratuzilmani rivojlantirishni rag'batlantirishni ta'minlaydi. To'qimachilik sanoati davlatimizning muhim strategik sohalaridan biri hisoblanadi. To'qimachilik korxonalarini faoliyatini rivojlantirish uchun esa ularni ham huquqiy, ham moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash zarur. To'qimachilik korxonalarini faoliyati rivojlanishi madaniy almashinuv, ta'lim va ijtimoiy farovonlikka, shuningdek, mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy imidjini shakllantirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Turizm klaster modeli, imtiyozlar, qo'shilgan qiymat solig'i bojxona to'lovlari, mol-mulk solig'i.

РОЛЬ ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА В РАЗВИТИИ ТУРИЗМА

Азизова Мунира Джахангировна

студент, Ташкентский государственный транспортный университет

Аннотация: Туризм - одна из основных отраслей экономики многих стран, обеспечивающая получение значительных доходов от экспорта услуг, создание рабочих мест и стимулирование развития инфраструктуры. Текстильная промышленность является одной из важнейших стратегических отраслей нашего государства. А для развития деятельности текстильных предприятий необходимо их юридическое и финансовое обеспечение. Развитие деятельности текстильных предприятий способствует культурному обмену, образованию и социальному благополучию, а также формированию положительного имиджа страны на международной арене.

Ключевые слова: кластерная модель туризма, льготы, налог на добавленную стоимость, таможенные пошлины, налог на имущество.

THE ROLE OF APPLIED ART IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM

Azizova Munira Jahangirovna

student, Tashkent state transport university

Abstract: Signaling, centering and blocking devices are primarily responsible for meeting the requirements for the safety and reliability of train movement. Despite the fact that electromagnetic relays, widely used today in railway automation and telemechanics systems, have first-class reliability, over time there is a requirement that they give way to modern multifunctional and highly reliable microelectronic devices. This article examines the economic



efficiency of introducing microelectronic encoders which replace mechanical contact code transmitters.

Key words: integrated microelectronic code transmitter, material resources, technological repair, warranty period, energy efficient.

O‘zbekiston boy madaniy merosga, go‘zal tabiatga, mehmondo‘st xalqiga ega mamlakat. U o‘zining tarixiy joylari, milliy bog‘lari, dam olish maskanlari va hunarmandchilik ustaxonalari bilan butun dunyodan sayyohlarni o‘ziga tortadi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati turizm infratuzilmasini faol rivojlantirmoqda va mamlakatni xalqaro turizm bozorida targ‘ib qilmoqda. Bunga misol qilib, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 29-mart va 11-oktyabr kuni turizm salohiyatini rivojlantirishga bag‘ishlangan videosektor yig‘ilishi hamda 16 oktyabr kuni Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasining 25-sessiyasini misol qila olamiz. Ushbu maqolada biz davlatda turizmni rivojlantirishning asosiy jihatlari va muammolarini, shuningdek uning yanada o‘sishi va rivojlanishi uchun imkoniyatlarni ko‘rib chiqamiz.

O‘zbekistonning turizm salohiyati

Turli xil tabiiy va madaniy diqqatga sazovor joylar mavjudligi tufayli O‘zbekistonda turizm katta salohiyatga ega.

Mamlakat YUNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan qadimiy Xiva, Buxoro, Samarqand kabi tarixiy obidalari bilan mashhur. Bugungi kunda YUNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatidan beshta ob‘yekt kiritilgan. Bularga:

- Xivadagi Ichan-qal‘a qal‘asi (1990 yilda YuNESKO ro‘yxatiga kiritilgan),
- Buxoro shahrining tarixiy markazi (1993 yilda kiritilgan),
- Shahrisabzning tarixiy markazi (2000 yilda kiritilgan),
- Samarqand – madaniyatlar chorrahasi (2001 yilda kiritilgan),
- G‘arbiy Tyan-Shan (2016 yilda kiritilgan).

Bundan tashqari, O‘zbekistonda Qizilqum cho‘li, Chimyon tog‘lari va Chotqol qo‘riqxonasi kabi noyob tabiiy joylar mavjud bo‘lib, ular ochiq havoda sayr qilish va ekoturizmni sevuchilarni o‘ziga jalb qiladi.

O‘zbekistonning har bil hududi turizm salohiyatiga ega va u erlarda turizmni rivojlantirish uchun ko‘plab imkoniyatlar mavjud.

Toshkent shahri tarixiy, madaniy, gastronomik, ekologik, sport, biznes va shopping turizmni rivojlantirish salohiyatiga ega. Biz Toshkentga sayyohlarni quyidagi yo‘llar bilan jalb qilishimiz mumkin:

Toshkent boy madaniy meros va tarixiy diqqatga sazovor joylarga ega. Ekskursiyalar, shahar va uning atrofiga sayohatlar, muzeylar, galereyalar va teatrlarga tashrif buyurishni tashkil qilishimiz mumkin. Madaniy-ma‘rifiy turizmni rivojlantirish uchun imkoniyat beradi.

O‘zbek oshxonasi o‘zining mazali va xushbo‘y taomlari bilan mashhur. Biz milliy taomlarni tatib ko‘rish, mahalliy oshpazlarning mahorat saboqlari, milliy taomlar festivallarini tashkil qilishimiz mumkin. Bu gastronomik turizmni rivojlantirish uchun imkoniyatlarni beradi.

Respublika to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida yuqori va barqaror o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va o‘zlashtirish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish, modernizatsiya qilishning strategik muhim ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalarini amalga oshirish hisobiga yuqori texnologiyali yangi ish o‘rinlarini yaratish, korxonalarini texnik va texnologik yangilash, ilg‘or “klaster modeli”ni joriy etishga qaratilgan tarkibiy qayta tashkil etishni yanada chuqurlashtirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.



1-rasm Madaniy meros haftaligining qo'l ishlari ko'rgazmasi

Shu bilan birga, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati rivojlanishining har tomonlama tahlili, raqobatning kuchayishi sharoitida jahon bozorining o'zgaruvchan konstrukturasi sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, yanada barqaror va jadal rivojlanishi mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishni taqozo etmoqda.



2-rasm Madaniy meros haftaligining milliy hunarmandchilik ko'rgazmasi

2019-yil hosilidan boshlab respublika tashkilotlariga paxta tolasini sotishda qo'shilgan qiymat solig'i jahon bozorlarida shakllangan narxlardan qat'iy nazar, paxta tolasining amaldagi sotish narxidan kelib chiqqan holda hisoblanishi belgilab qo'yildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2019 - 2025 yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish maqsadida, kompleks yondashuv asosida xom ashyoni qayta ishlash, tayyor mahsulotni, shu jumladan, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish va qo'llab-quvvatlash asosida ishlab chiqarish va eksport qilish, to'qimachilik mahsulotlarini sotishning ichki va tashqi bozorlarini tadqiq qilish, ichki va tashqi bozorlarda mahsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga

oshirish, qo'shimcha qiymat yaratishning yagona zanjirini tuzish, respublikada ishlab chiqariladigan paxta ip-kalavalarining butun hajmini qayta ishlash hisobiga 2025 yilga borib to'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmini 7 mlrd. AQSH dollariga etkazish Kontseptsiyasini tasdiqlandi.

2020-yil 1 yanvardan quyidagi soliq imtiyozlari joriy etildi:

- hisobot davri natijalari bo'yicha yalpi tushumning umumiy hajmida tayyor tikuvtrikotaj ma'sulotlarining eksporti 60%dan kam bo'lmagan eksport ulushiga ega bo'lgan korxonalar 2023 yil 1 yanvarga qadar mol-mulk solig'ini to'lashdan ozod etildi;

- to'qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal va mo'ynachilik sohalari korxonalarining foyda solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan bazasi 7 yil davomida teng ulushlarda zamonaviy tozalash va kanalizatsiya inshootlarini qurish bo'yicha xarajatlar summasiga kamaytiriladi;

- "O'zto'qimachilik sanoat" va "O'zcharmsanoat" uyushmalarining xorijiy konsultantlari, shuningdek, to'qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal va mo'ynachilik sohalari korxonalarida mehnat faoliyatini yuritayotgan xorijiy mutaxassislar O'zbekistondagi daromad manbalari bo'yicha JSHDSni uning belgilangan stavkasidan 50% miqdorida to'laydi.

Bundan tashqari, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti qoshidagi O'zbekiston-Koreya o'quv-amaliy to'qimachilik texnoparkiga 2023-yil 1-yanvarga qadar bojxona imtiyozlari taqdim etildi. Shuningdek, unga "Angren" Erkin Iqtisodiy

Zonasida to'qimachilik va tikuv-trikotaj ma'sulotlari ishlab chiqarish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun yer maydonlari ajratildi.

"O'zpaxtasanoat" AJ 2018-2020 yillar hosilidan paxta tolasini mahalliy to'qimachilik korxonalariga birja savdolarida milliy valyutaga, mahsulot yuklab jo'natilgan kundan 90 kun mobaynida yakuniy hisob-kitob qilgan holda 35 foiz oldindan to'lov asosida sotish topshirig'i berildi.



3. "Silk road bazaar" milliy hunarmandchilik va savdo festivali

Paxta tozalash zavodlarini paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlariga sotishda baholash qiymatidan chegirmalar amal qiladi. Chegirmalar miqdori to'lov muddatlariga bog'liq: bir yil mobaynida to'langanda – 50%, 2 yil mobaynida to'langanda – 40%, 3 yil mobaynida to'langanda – 30%. Chegirmalarni hisobga olgan holdagi bahosi balans qiymatidan past bo'lishi mumkin emasligi belgilab qo'yildi.

Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari bir qator qo'shimcha afzalliklarga ega bo'ldi:

- paxta xom ashyosini yetishtirish uchun 2019-yilda Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan banklar tomonidan berilgan kreditlar faqat 11 oy



o'tganidan so'ng qaytariladi, har bir transh uchun qaytarish muddatini hisoblash esa qarz oluvchilarga mablag'lar kelib tushgan paytdan boshlanmoqda;

- ular paxta urug'lik chigitini ishlab chiqarishni mustaqil amalga oshirishlari, o'z e'tiyajlari uchun ishlab chiqarilayotgan paxta tolasini ixtiyoriy ravishda sertifikatlashlari mumkin.

2021–2023 yillarda “O'z paxtasanoat” AJning loyihalarni amalga oshirishda tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar bo'yicha foizlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi mablag'lari hisobiga quyidagi tartibda qoplanadi:

tijorat banki tomonidan aylanma mablag'larni to'ldirish uchun berilgan kreditlar bo'yicha belgilangan foiz stavkasining 25 foizi miqdorida, ammo 5 foizli punktdan yuqori bo'lmagan holda;

asbob-uskunalarini sotib olish maqsadida tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar bo'yicha belgilangan foiz stavkasining 50 foizi miqdorida etib belgilgan.

2022-yil 1-yanvarga “O'z paxtasanoat” AJ va uning tizimidagi korxonalar ishtirokida loyihalarni amalga oshirish doirasida talab etiladigan:

qurilish materiallari yetkazib beruvchi va qurilish-montaj ishlarini bajaruvchi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ro'yxatdagi korxonalar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etildi;

respublikada ishlab chiqarilmaydigan, texnologik asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar, qurilish materiallarini belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha bojxona to'lovlaridan (bojxona yig'imlaridan tashqari) ozod etilgan;

ishlab chiqargan xom-ashyo (paxta tolasidan tashqari) va yarim tayyor mahsulotni tizim ichida sotishdan tushgan mablag'lar hamda paxta tolasini sotishdan yuzaga kelgan ijobiy farq mablag'lari soliqqa tortish obyekti hisoblanmasligi belgilab qo'yildi.

To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish maqsadida qabul qilinayotgan barcha davlat dasturlari, berilayotgan soliq va bojxona imtiyozlari paxta xom ashyosini qayta ishlash, qo'shimcha qiymat yaratishning yagona zanjirini tuzish, respublikada ishlab chiqariladigan paxta ip-kalavalarining butun hajmini qayta ishlashga qaratilmoqda. Buning natijasida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, sog'lom raqobat uchun zarur sharoitlarni yaratish, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash ko'zda tutiladi.

Xulosa qilib aytganda, turizmni rivojlantirish hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va ekologik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, mahalliy hamjamiyatlarning farovonligiga hissa qo'shadi. Davlatimizni butun dunyoga tanitish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.02.2019 yil kungi PQ-4186-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2019 yil kungi PQ-4337-sonli "Eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug'urta himoyasi mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

3. Махмадиева, Г. (2021). Инновационные методы формирования у учащихся устной и письменной речи в процессе обучения русскому языку. Общество и инновации, 2(3/S), 84-89.

4. Махмадиева, Г. А. (2018). Злободневные проблемы в преподавании русского языка в условиях билингвизма. In Методика обучения и воспитания и практика 2017/2018 учебного года (pp. 82-86).



-
5. Махмадиева, Г. С. А. (2022). Технология обучения русскому языку как неродному средствами иммерсивных обучающих программ. *Academic research in educational sciences*, 3(4), 51-55.
 6. Махмадиева, Г. (2021). Актуальная проблема обучения русскому языку как неродному в современных условиях образования в узбекских школах. *Экономика и социум*, (9 (88)), 532-538.
 7. Махмадиева, Г. (2023). МЕТОДИЧЕСКИЕ ПРИЁМЫ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ В ВУЗАХ. *Молодые ученые*, 1(3), 140-143.
 8. Махмадиева, Г. С. А. (2023). ВОСПРИЯТИЕ СТУДЕНТАМИ УЧЕБНОГО МАТЕРИАЛА СРЕДСТВАМИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ. *Academic research in educational sciences*, 5(NUU conference 3), 388-392.
 9. Махмадиева, Г. (2023). Сущность и содержание иммерсивных образовательных программ при обучении русскому языку как иностранному. *Общество и инновации*, 4(2/S), 177-182.
 10. Махмадиева, Г. С. (2023). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ИММЕРСИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ. *Ученый XXI века*, (1 (92)), 62-67.
 11. Абдуллаева, А. И. (2018). СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ. *Экономика и социум*, (11 (54)), 63-65.
 12. Махмадиева, G. S. A. (2020). THE PROBLEM OF FORMATION OF PUNCTUAL SKILLS IN SCHOOL STUDENTS. *Theoretical & Applied Science*, (6), 763-767.
 13. Махмадиева, Г. С. А. (2020). ОСНОВА СИСТЕМЫ ЧАСТЕЙ РЕЧИ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ. *Интернаука*, (7-1), 39-40.
 14. Махмадиева, Г. (2021). Актуальная проблема обучения русскому языку как неродному в современных условиях образования в узбекских школах. *Экономика и социум*, (9 (88)), 532-538.



**МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛЛАРИ:
РИВОЖЛАНИШИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ**

Тўхтамуродов Иброхим Олим ўғли
талаба, Тошкент давлат транспорт университети
ibrohimtoxtamurodov17@gmail.com

Амангелдиева Халнура Нигматуллаевна
талаба, Тошкент давлат транспорт университети
amangeldiyevaxalnura573@gmail.com

Юлдашев Бахтиёр Эргашевич
т. ф. н. доцент, Тошкент давлат транспорт университети

Аннотация: Ушбу мақолада амалдаги манбалар асосида мустақиллик йилларида Ўзбекистон темир йўллари, унинг ривожланиши ва истиқболи қисқача таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: темир йўл, тизимдаги муаммолар, Навоий-Учкудук-Султон Увайстог-Нукус”, “Тошгузар-Бойсун-Қумқўрғон”, “Ангрен-Поп”, истиқбол.

**ЖЕЛЕЗНЫЕ ДОРОГИ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ: РАЗВИТИЕ
И ПЕРСПЕКТИВЫ**

Тухтамуродов Иброхим Олим угли
студент, Ташкентский государственный транспортный университет
ibrohimtoxtamurodov17@gmail.com

Амангельдиева Халнура Нигматуллаевна
студент, Ташкентский государственный транспортный университет
amangeldiyevaxalnura573@gmail.com

Юлдашев Бахтияр Эргашевич
к.и.н. доцент, Ташкентский государственный транспортный университет

Аннотация: В данной статье на основе имеющихся источников кратко анализируются железные дороги Узбекистана в годы независимости, их развитие и перспективы

Ключевые слова: железная дорога, системные проблемы, Навои-Учкудук-Султан Увайстог-Нукус», «Ташгузар-Бойсун-Кумкурган», «Ангрен-Поп», перспектива

**RAILWAYS OF UZBEKISTAN IN THE YEARS OF INDEPENDENCE:
DEVELOPMENT AND PROSPECTS**

Abstract: This article briefly analyzes the railways of Uzbekistan during the years of independence, its development and prospects based on available sources.



Key words: railway, system problems, Navoi-Uchkuduq-Sultan Uvaystog-Nukus", "Tashguzar-Boysun-Kumkurgan", "Angren-Pop", perspective

Амударё ва Сирдарё оралиғида жойлашган Ўзбекистон замини қадим замонлардан Шарқ ва Ғарбни боғлаб турган. Худудимизда савдо йўллари туташган, ташқи алоқалар ҳамда турли маданиятларнинг бир-бирини бойитиш жараёни жадал кечган. Бугунги кунда мамлакатимизнинг жўғрофий жойлашуви, маъмурий чегараларини инобатга олсак, Совет иттифоқи парчаланиб кетганидан кейин ташқи коммуникациялар муаммоси Ўзбекистон учун кескинлашди. Чунки республикамиз юклари денгиз бандаргоҳларига чиқиш учун бир неча мамлакатларнинг худуди орқали ўтишига тўғри келарди. “Бугунги кунда, – дейди Ўзбекистон Президенти Ш.М. Мирзиёев, – денгиз портларига тўғридан-тўғри чиқиш имконига эга бўлмаган минтақа давлатларининг транспорт-транзит харажатлари сезиларли даражада катта бўлиб, улар экспорт қилинаётган маҳсулот қийматининг 70-89 фоизигача етмоқда” [1]. Бу ҳол давлатимизнинг иқтисодий алоқаларини ривожлантириш имкониятларини чегаралаб, юкларимиз транзит тарзда ўтадиган мамлакатларга ўртасидаги “божхона тартиб-таомилларнинг мукамал эмаслиги оқибатида юк ташувчилар товарларни етказиб беришга кетадиган вақтнинг 40 фоизигача бўлган қисмини беҳуда йўқотмоқда. Буларнинг барчаси бутун минтақа транспорт сектори рақобатбардошлигининг пасайишига олиб келмоқда” [2]. Қолаверса, Ўзбекистоннинг худуд ва минтақаларини қамраб оладиган яхлит миллий темир йўл транспорти тизимининг барпо этилмагани сабабли Фарғона водийси, Сурхондарё воҳаси, Қорақалпоғистон Республикаси ҳамда Хоразм вилояти темир йўл тармоқларига уланиш нуқтаи назаридан Ўзбекистоннинг бошқа худудларидан ажралиб қолган эди. Темир йўл транспорти орқали олиб келинаётган ҳамда четга олиб чиқиб кетилаётган халқ хўжалиги юклари шимолда –Қорақалпоғистон Республикаси ва Хоразм вилоятига 360 километр, жанубда – Сурхондарё вилоятига Туркманистон худудидан 194 километр, ғарбда – Фарғона водийсига Тожикистон худудидан 100 километр масофани кесиб ўтишга тўғри келар эди [3]. Бу эса ўз вақтида катта миқдордаги валюта ва божхона тўловларини амалга оширишни тақозо этарди. Темир йўл транспорти ҳаракатланувчи таркибларининг (локомотив ва вагонлар) “жисмонан” ишдан чиққанлиги, “маънан эскирганлиги”, замон даражасида хизмат кўрсатиш имконини берадиган техника ва технологиялар билан жиҳозланмаганлиги муаммолар сирасига кирарди.

Ўзбекистон Республикаси ҳукумати мустақиллигимизнинг илк йилларидан бошлаб темир йўл тармоқлари тизимини ривожлантириш ва такомиллаштириш масалаларига алоҳида эътибор қаратди. Темир йўл транспортида юк ва йўловчиларни ташиш эҳтиёжларини тўла қондириш ҳамда унинг барқарор ва хавф-хатарсиз ишлашини таъминлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1994-йил 7-ноябрдаги Фармони билан собиқ Ўрта Осиё темир йўлининг республика худудида жойлашган участкалари асосида “Ўзбекистон темир йўллари” давлат акциядорлик темир йўл компанияси ташкил этилди. Фармонда “Ўзбекистон темир йўллари” давлат акциядорлик темир йўл Ўзбекистон Республикаси давлат темир йўл транспорти бошқармасининг темир йўл транспортида юк ташиш жараёнларига раҳбарлик қиладиган ва хўжалик ишларини амалга оширадиган ваколатли органи деб белгиланди [4]. Тўғридан - тўғри хорижий инвестицияларни кенг жалб этиш, акциядорлик жамиятлари фаолиятининг самарадорлигини тубдан ошириш, бўлажак инвесторлар учун уларнинг очиклиги ва жозибадорлигини таъминлаш, замонавий корпоратив бошқарув услубларини жорий қилиш, корхоналарни стратегик бошқаришда акциядорлар ролини кучайтириш учун қулай шароитлар яратиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014-йил 24-



апрелдаги “Акциядорлик жамиятларида замонавий корпоратив бошқарув услубларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-4720-сонли Фармони билан “Ўзбекистон темир йўллари” Давлат акциодорлик темир йўл компанияси очик акционерлик жамияти ёки “Ўзбекистон темир йўллари” АЖ, деб ўзгартирилди.

Ўзбекистон Республикасининг темир йўл соҳасидаги давлат сиёсати ишлаб чиқилди, унинг асосий вазифалари сифатида қуйидагилар белгиланди, хусусан, биринчидан, ягона ва яхлит темир йўл транспорт коммуникация тизимини барпо этиш, иккинчидан, темир йўл тармоғининг асосий йўналишларида электрлаштириш ишларини давом эттириш, учинчидан, темир йўл изларини модернизациялаш ҳамда телекоммуникацияни оптик толали алоқа қурилмаларига ўтказиш асосида темир йўл транспорти инфраструктурасини ривожлантириш, тўртинчидан, ҳаракатланадиган таркибни (локомотив ва вагон) тиклаш ва модернизация қилиш, бешинчидан, жаҳон бозорига чиқишни таъминлайдиган муқобил транспорт коридорларини излаб топиш.

Ўзбекистон мустақилликка эришган даврдан транспорт коммуникацияси ривожланиши учун қатор лойиҳалар амалга оширилди. Давлат бюджетидан темир йўллари реконструкция қилиш, янги темир йўллар, кўприклар қурилиши ва тегишли инфрақурилишнинг ривожланиши учун 8 миллиард доллардан ортиқ капитал қўйилмалари, шундан 2,6 миллиард доллардан ортиқ капитал йўналтирилди [5]. Ўзбекистон Республикаси Президенти ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг фармон ҳамда тегишли қарорлари асосида 2001-йилнинг охирида 633 километрлик “Навоий-Учкудук-Султон Увайстоғ-Нукус”, 2007-йил август ойида 223 километрлик “Тошгузар-Бойсун – Қумқўрғон”, 2016-йил июнь ойида эса 123 километрлик электрлаштирилган “Ангрен-Поп” янги темир йўллариининг фойдаланишга топширилиши мамлакатимизнинг шимолий ва жанубий ҳудудларининг иқтисодий салоҳиятини янада ривожлантириш, минерал ресурслар, нефть ва газ, рангли металллар, қурилиш материаллари ва бошқа хомашёга бой қонларни комплекс ўзлаштириш, энг муҳими, янги иш ўринлари яратиш, минг-минглаб юртдошларимизни иш билан таъминлаш имконини берди. Бу йўллар мамлакатимизда ягона ва яхлит миллий темир йўл коммуникация тизимининг барпо этилиши йўлида энг муҳим қадамлардан бири бўлиб хизмат қилмоқда.

Мустақиллик йилларида темир йўллариини электрлаштириш масалаларига алоҳида эътибор қаратилди. Ўтган давр ичида “Тошкент-Хўжакент”, “Тўқимачи-Ангрен”, “Тошкент-Самарқанд”, “Мароқанд-Қарши” линиялари электрлаштирилди. 325 километрлик “Қарши-Термиз” темир йўл участкасини электрлаштириш, икки томонлама қатновга эга бўлган “Жиззах-Янгиер” электрлаштирилган темир йўл тармоғи қурилишининг иккинчи босқичи амалга оширилмоқда. Ўтган йиллар давомида 1800 километрдан ортиқ темир йўллар электрлаштирилди. Электрпоездларнинг қатнови натижасида поездлардан фойдаланиш харажатларини 20 фоизга камайтириш, йўловчи ва юк ташиш тезлигини 1,3 баробар ошириш имкони яратилди [6].

“Ўзбекистон темир йўллари” акциядорлик жамияти томонидан транспорт соҳасидаги хизмат кўрсатиш даражаси ва сифатини ошириш мақсадида ҳаракатланадиган таркибни энг замонавий, юқори самарали локомотивлар ва қулай вагонлар билан таъминлаш ва модернизация қилиш ишларига алоҳида эътибор берилмоқда. Сўнгги йилларда 49 та замонавий электровоз ва 10 та йўловчи ташийдиган тепловоз сотиб олингани, 120 та локомотив модернизация қилингани бу борадаги ишлар қўлами тобора ортиб бораётганини кўрсатади [7]. Бугунги кунда темир йўл тармоғининг жадал ривожланаётган, юксак технологияларга асосланган Тошкент йўловчи вагонларни қуриш ва таъмирлаш заводи, Қуюв-механика заводи, “Ўзтемирйўлмаштаъмир” унитар корхоналари локомотив ва йўловчи вагонларни таъмирлаш, модернизация қилиш ва қайта



жихозлашдан ташқари қисқа вақт ичида вагонсозлик саноатимизга асос солинди. Бу ерда 2,5 мингта юк ва 150 та янги йўловчи вагонлари ишлаб чиқилди, 735 та йўловчи вагонлари модернизация қилинди [8].

Айни вақтда Ўзбекистон темир йўлчилари олдида “юк ва йўловчи ташиш ҳажмини ошириш билан бир қаторда, ҳудудларнинг иқтисодий салоҳиятини янада юксалтириш, бой минерал хомашё ресурсларини комплекс ўзлаштириш, тармоқ корхоналари учун мутахассислар тайёрлаш, иқтисод тармоқлари ва аҳолининг кўмир маҳсулотларига тобора ўсиб бораётган талабини қондиришга йўналтирилган инвестициявий лойиҳаларни амалиётга тадбиқ этиш, мамлакатимиз транзит салоҳиятини янада ривожлантириш ва миллий иқтисодиётлар таркибида транспорт соҳаси улушини ошириш, транспорт инфратузилмасига замонавий технологиялар ва хорижий инвестицияларни жалб этиш, Шарқ-Ғарб лойиҳаси доирасида Хитойдан бошланадиган, Қирғизистон ва Ўзбекистон орқали ўтадиган, кейинчалик янги барпо этилган Боку-Тбилиси-Карс темир йўл магистрали орқали Жанубий ва Шарқий Европа, Яқин Шарқ мамлакатлари ва Ўрта ер денгизи портларига олиб чиқадиغان янги транспорт йўлакларини шакллантириш вазифалари турибди [9].

Хулоса қилиб айтганда, мустақиллик йилларида транспорт коммуникация тизимининг чуқур ислоҳ қилиниши бир томондан, мамлакатимизнинг ҳудудий яхлитлиги ва унинг хавфсизлигини мустаҳкамлади, иккинчи томондан, мамлакат ичида юк ташишга бўлган талабни тўла қондирди ҳамда ташқи иқтисодий алоқаларнинг ўсишига ҳам таъсир кўрсатди, учинчи томондан республика иқтисодиётини ривожлантириш, йирик табиий бойликларини ўзлаштириш учун қулай имкониятларни очиб берди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. “Марказий Осиё халқаро транспорт йўлакларини тизимида: стратегик истиқболлар ва фойдаланилмаган имкониятлар” халқаро конференция иштирокчиларига Ўзбекистон Республикаси Президенти қутлови // “Халқ сўзи”, 2018, 21-сентябрь.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбекистон темир йўллари” акциядорлик жамияти жамоасига табриги // “Халқ сўзи”, 2018 йил, 4-август.
3. Темир йўллар – миллат куч – қудрати // “Темирйўлчи”, 2003, 6-июнь.
4. “Ўзбекистон темир йўллари” Давлат-акционерлик темир йўл компаниясини тузиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1994-йил 7-ноябрдаги Фармони. // “Темирйўлчи”, 1994, 12 ноябрь.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбекистон темир йўллари” акциядорлик жамияти жамоасига табриги // “Халқ сўзи”, 2018-йил, 4-август.
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбекистон темир йўллари” акциядорлик жамияти жамоасига табриги // “Халқ сўзи”, 2018-йил, 4-август.
7. “Ўзбекистон темир йўллари” акциядорлик жамияти жамоасига// Шавкат Мирзиёев. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. Т., “Ўзбекистон”, 2018, 431-бет.
8. “Ўзбекистон темир йўллари” акциядорлик жамияти жамоасига // “Темирйўлчи”, 2014, 13-ноябрь.
9. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбекистон темир йўллари” акциядорлик жамияти жамоасига табриги // “Халқ сўзи”, 2018-йил, 4-август.



**О‘QUVCHILARNI TARBIYALASHDA OILA, MAHALLA, MAKTAB
HAMKORLIGINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI**

Normurodova Adiba Alisher qizi
assistant, Qarshi xalqaro universiteti
kiu@info.uz

Annotatsiya: O‘zaro hamkorlik ishlarini boshqarish uchun joylarda o‘z tarkibiga mahallalar faollari, obro‘li ota-onalardan, o‘quv-tarbiya muassasalarining tajribali xodimlaridan, mahalla hududida joylashgan turli tashkilotlarning xodimlaridan iborat muvofiqlashtiruvchi jamoatchilik kengashlari tuzilishi kerak. Jamoatchilik kengashi o‘z zimmasiga olgan vazifalardan kelib chiqib o‘z tarkibida turli yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatadigan kichik tashabbuskor guruhlarni tuzish lozim.

Kalit so‘zlar: oila, mahalla, maktab, mexanizm, jamoatchilik, jamiyat.

**МЕХАНИЗМ РЕАЛИЗАЦИИ СЕМЕЙНОГО, ОБЩЕСТВЕННОГО, ШКОЛЬНОГО
СОТРУДНИЧЕСТВА В ВОСПИТАНИИ УЧАЩИХСЯ**

Нормуродова Адипа Алишер кизи
ассистент, Каршинский международный университет
kiu@info.uz

Аннотация: Для управления работой взаимного сотрудничества должны быть сформированы местные координационные общественные советы, состоящие из активистов микрорайона, авторитетных родителей, опытных сотрудников образовательных учреждений, сотрудников различных организаций, расположенных на территории микрорайона. Исходя из задач, которые взял на себя общественный совет, необходимо в его структуре сформировать небольшие инициативные группы, которые будут работать по разным направлениям.

Ключевые слова: семья, соседство, школа, механизм, сообщество, общество.

**MECHANISM FOR IMPLEMENTING FAMILY, PUBLIC, SCHOOL COOPERATION
IN THE EDUCATION OF STUDENTS**

Normurodova Adiba Alisher kizi
assistant, Karshi international university
kiu@info.uz

Annotation: To manage the work of mutual cooperation, local coordinating public councils should be formed, consisting of neighborhood activists, authoritative parents, experienced employees of educational institutions, and employees of various organizations located in the neighborhood. Based on the tasks that the public council has undertaken, it is necessary to form small initiative groups within its structure that will work in different directions.



Key words: family, neighborhood, school, mechanism, community, society.

Jamiyatimiz uchun yuqori malakali, raqobatga qodir mutaxassislarni tayyorlash uchun maktab, ota-onalar va mahalla hamkorlikda olib boriladigan kasbga yo'naltirish ishlarini takomillashtirish, yangi shakl va usullarni izlab topish va bunga keng jamoatchilikni ham jalb etish kerak. O'quvchi maktabda ta'lim tarbiya olish bilan birgalikda shaxs sifatida shakllana boradi. O'zining jamiyatdagi o'rnini sinfdoshlari, qolaversa, murabbiy, mahalladagi ilg'or hunarmandlar bilan taqqoslay boshlaydi. O'zi dagi yaxshi jihozlarni namoyon etishga intiladi va o'zgaralar ichida ajralib turishga harakat qiladi. Xuddi shu paytdan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchilar, sinf rahbarlari, mehnat ta'limi o'qituvchilari kasb-hunarga yo'llash sohasidagi dastlabki ma'lumotlarni bera boshlashlari lozim. O'quvchilarning o'zlari uchun munosib kasblar tanlashlarida ota-onalarning roli alohida o'rin tutadi. Sinf rahbari, maktab ruhshunosi kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassis va maktab shifokori bilan hamkorlikda ish olib borib, o'quvchining psixologik-pedagogik xaritasidan yozilgan tashxis natijalariga asoslanib, kasbiy maslahat berishlari lozim. Buning uchun, avvalo, ota-onalarning o'z farzandlari haqida fikrlarini bilish kerak.

Zarurat tug'ilganda o'quv-tarbiya muassasalari, mahalla faollari, mahalla hududida joylashgan tashkilot, korxonalar va idoralarning ta'lim-tarbiya yuzasidan olib borilayotgan ishlari to'g'risida hisobotlarni tinglab, ularga amaliy va nazariy yordamberishi ish samarasiga va uning izchilligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kengash mahalla hududida istiqomat qilayotgan, o'z farzandlari tarbiyasiga befarq ota-onalarga nisbatan davlat boshqaruv idoralari, huquqni himoya qilish tashkilotlari bilan hamkorlikda turli ma'muriy choralarni qo'llashi mumkin. Kengash tashabbusi bilan biror-bir dolzarb mavzuda favqulodda mahalla yig'inlari, o'quv-tarbiya muassasalarining pedagogik kengashlari yoki boshqa zarur tadbirlar tashkil qilib o'tkazilishi mumkin. Kengash mahalla hududida o'zbek milliy tarbiya an'analarini tiklash, turli madaniy tadbirlar o'tkazish, bolalar va kattalarning bo'sh vaqtlarini tashkil etish borasida maktablar, o'yingohlar, madaniyat muassasalari, sport inshootlari, o'smirlar klublari, maktabgacha va maktabdan tashqari muassasalar ishini muvofiqlashtiradi. Kengash o'tkazilgan tadbirlarni tahlil qiladi, bu borada uslubiy maslahatlar tayyorlaydi va bu tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida yoritadi. Kengash yosh avlodni tarbiyalashda mahalla, maktab va oila hamkorligi tasarrufiga kirgan masala va muammolarni mahalla hududidagi o'quv-tarbiya muassasalari, tashkilot va idoralari ishi rejalashtirilishi va amaliyot dasturlariga kiritilishida ularning bahamjihatligini ta'minlaydi. Yuqorida aytilganidek, ota-onalarning mehnatga bo'lgan munosabati bolaga kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi va o'zidan katta sinfdoshlari, mahalladagi faollarning mehnatsevarligi kichiklarga mehnat namunasiga aylanadi. Ota-onalar, maktab bolaning qiziqishi va maylini o'z vaqtida payqab, ulardan iste'dodni rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishlari lozim. Bu esa bolalarda kattalar mehnat yutuqlaridan faxrlanish hissini tarbiyalab, ularga ergashishga undaydi.

Oilada olib borilgan yaxshi mehnat tarbiyasi bolalarning muvaffaqiyatli o'qishiga yaxshi zamin bo'lib xizmat qiladi. Ota-onalar shuni unutmasliklari kerakki, maktabda ham bolalar bilan mehnat tarbiyasi olib boriladi, mehnat va ijtimoiy foydali mehnat darslari o'tiladi. Mehnat ko'nikmasiga ega bo'lmagan bolalar bu darslarda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishadi. O'g'il-qizlarni barcha mehnat turlariga tayyorlashda maktab, oila, mahalla hamkorligida bolalarni yangi hayotga tayyorlash faqat ijobiy natija beradi. Vaqtning qadriga yetish, daqiqalarni e'zozlash, uning barcha imkoniyatlaridan oqilona foydalanish hozirgi kunning muhim shioriga aylangan bir paytda ota-onalarning, kattalarning ibrati bolalar uchun o'rnak bo'lishi kerak.



